

XALQARO MUNOSABATLARDA O'ZBEKISTONNING O'RNI

Ilmiy rahbar: Agrologistika va biznes fakulteti Agroiqtisodiyot kafedrası, iqtisodiyot fanlari nomzodi dotsent Ashurmetova Nigora Ozodbekovna
Toshkent davlat agrar universiteti Agrologistika va biznes fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi 23-132 inter Muhammadaminov Sarvar Nodirbek o'g'li.

Anotatsiya: Ushbu maqola mustaqillikdan so'ng, asosan XXI asrda O'zbekiston davlatining jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni mavzusida yozildi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyotidagi hissasi, import va eksport ulushi hamda xalqaro munosabatlarda tutgan o'rni haqida aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Jahon iqtisodiyoti, import, eksport, milliy iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, elchixonalar, tashqi savdo

Annotation: This article was written after independence, mainly on the topic of the role of Uzbekistan in the world economy and international relations in the 21st century. The article talks about the contribution of the Republic of Uzbekistan in the world economy, the share of imports and exports, and its role in international relations.

Key words: World economy, import, export, national economy, international relations, embassies, foreign trade

Аннотация: Данная статья написана после обретения независимости, главным образом, на тему роли Узбекистана в мировой экономике и международных отношениях в 21 веке. В статье говорится о вкладе Республики Узбекистан в мировую экономику, доле импорта и экспорта, ее роли в международных отношениях.

Ключевые слова: Мировая экономика, импорт, экспорт, национальная экономика, международные отношения, посольства, внешняя торговля.

O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyoti borgan sari shakllana boshladi. Milliy iqtisodiyot- bu ma'lum bir davlat hududida tarixan tashkil topgan, bir-biri bilan maqsadi va mehnat taqsimoti bog'liq bo'lgan tarmoqlarning yig'indisidir. Yagona tizim sifatida milliy iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan munosabatlari, boshqaruv tizimi, umumiy iqtisodiy infrastrukturasi va mustaqil qonunchiligiga ega bo'lgan mustaqil davlatchilikni taqozo qiladi. Har bir yirik davlatlar kabi O'zbekiston ham jahon iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Jahon iqtisodiyotiga hissasini qo'shish deganda faqat eksport mahsulotlarini sotish emas, balki import mahsulotlari qabul qilish ham nazarda tutiladi. Albatta mamlakatda eksport hajmi import hajmidan ko'p bo'lishi uchun mamlakatning iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Ammo boshqa tarafdin olib qaraganda mamlakat ichki mahsulotlarining haddan ziyod tashqi bozorga chiqishi

davlatning ichki bozoriga salbiy ta'sir qilishi ham mumkin. Shuning uchun ko'pgina davlatlar iqtisodiyotida ba'zan import hajmi eksport hajmidan ko'proq bo'ladi, ba'zida esa teskari hodisa kuzatiladi. Tashqi savdo deganda esa import va eksport hajmlarining umumiy yig'indisi nazarda tutiladi. Raqamlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 2022-yilning yanvar-iyun holatiga ko'ra O'zbekistonda import hajmi eksport hajmiga nisbatan anchagina oshganligini kuzatamiz. Bu davr ichida O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi \$28,1 mlrd.ga tengligi kuzatildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan \$6,3 mlrd.ga oshgan.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport \$11,3 mlrd.ni tashkil etdi. Bunda:

- Manhsulotlar - \$9,3 mlrd.
- Xizmatlar \$2 mlrd. ga teng bo'lgan.
- Yuqorida aytilgandek bu davrda import eksportga nisbatan sezilarli, unga \$16.8 mlrd. sarflangan. Bunda:
 - Mahsulotlar - \$15,4 mlrd.
 - Xizmatlar \$1,4 mlrd. ga tengligi kuzatildi.

Dunyoda yuz berayotgan muhim o'zgarish va jarayonlar hayotga obyektiv ravishda bir tomondan beqarorlik baxsh etsa, ikkinchi tomondan ma'lum bir tuzilma, tartibga moyillik tizimi shakllanadi. Unga nisbatan befarq va mas'uliyatsizlik bilan qarash insonga katta zarar etkazadi. Bu o'z navbatida xalqaro siyosatga, xalqaro hamjamiyatga xos narsa emas. Shu boisdan insoniyat, barcha siyosiyintelektual doiralar batamom boshqacha yondashuvga moyillikni yuzaga keltiradi. Shakllanayotgan qarashlar tizimi rang-barang. Shu sabab bu masalaga davlatlar va guruhlar o'rtasidagi turli xil munosabatlardan iborat tizim sifatida yondashish bilan bog'liq.

Xalqaro tizim siyosat subyektiga qarashlarda turli xil tendensiyalar kuchaymoqda. Bular:

1 – qarash. Xalqaro tizim subyektiga nomaqbul qarashlarbo'lib, politolog, siyosiy arboblari Zbignev Bjezinskiy hamda GenriKissinjerlarga mansub bo'lgan «realistlar maktabi» vakillari qarashlaridir. Unga ko'ra, xalqaro siyosat maydoni, ya'ni xalqarohayot ulkan shaxmat taxtasibo'lib, u erdagi figuralar, ya'ni ishtirokchilar qandaydir kuchli o'yinchilar izmi va xohish irodasiga bog'liq bo'lishadi

2 - qarashga ko'ra, xalqaro hayotga mohiyatdan bir-birigadushman bo'lgan davlatlar faoliyati makondir, deyilib, xalqarosiyosat esa yaxlit tizim bo'lmasdanbir-biriga azaliy muxolif bo'lgan kuchlarning o'zaro munosabatidan shakllanadi. Bulardan tashqari xalqaro tizim subyektida unchalikmuhim yoki muhim bo'lmagan boshqa ko'plab qarashlar ham borki, ular shartli ravishda pragmatiklar va idealistlar, fragmentarchilar va monialistlar, birqutbchilar va ko'p qutbchilar hisoblanadi.

Diplomatiya - (fransuzcha) - davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. Diplomatik davlat rahbarlari, hukumatlar, davlat tashqi ishlar organlari

va bevosita diplomatlarning tashqi siyosat maqsad va vazifalarini amalga oshirishga hamda o'z davlatining va xorijdagi ayrim fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga yordam beruvchi rasmiy faoliyati shaklida olib boriladi. Demak, diplomatiya tashqi siyosatda davlat hokimiyati faoliyatining maqsad-yo'nalishi bo'lib, diplomatiyani tashqi siyosat orqali amalga oshirish vositasidir.

O'zbekiston mustaqil davlat maqomiga ega bo'lishi bilanoq xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli, suveren hamkorlik qilish yo'lini tutdi. Bu borada hamkorlikning xalqaro e'tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asoslari shakllantirildi. Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan davlatga aylandi. O'zbekiston jahonning qator mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda hamkorlik qilmoqda, ko'plab yirik tashkilotlarning teng huquqli a'zosisidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligida O'zbekiston qisqa vaqt ichida dunyoning ko'plab yetakchi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishga muvaffaq bo'ldi va 1990-yillarning o'rtalariga kelib 165 davlat mamlakatimizni tan oldi[1]. Hozirgi kunda ularning 133 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 44 davlat va 20 dan ortiq yirik xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tgan. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari xorijiy davlatlarda va xalqaro tashkilotlar huzurida faoliyat yuritadi, shu jumladan, BMT ning Nyu-Yorkdagi vakolatxonasi, BMT ning Yevropa Byurosi va Jenevadagi boshqa xalqaro tashkilotlar. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga, jumladan, BMT, SHHT, MDH va boshqalarga a'zo. O'zbekiston to'laqonli asosda eng nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lib, yirik bank, moliya organlari bilan hamkorlik qiladi. Nodavlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi, respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditatsiyalangan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda[2]. O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent bugungi kunda xalqaro nufuzli tashkilotlar ishtirokidagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va hamkorlik masalalari bo'yicha muhim xalqaro anjumanlar markaziga aylandi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlar – YEXHT, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) bilan teng huquqli a'zo sifatida, Yevropa Ittifoqi, NATO bilan "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasidagi aloqalari rivojlandi. O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'li barcha xalqaro tashkilotlar bilan har tomonlama hamkorlik qilishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda 40 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatgan[3]. O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi keng quloch yozib borayotganligiga uning xalqaro maydonda obro'si oshayotganligidan dalolat beradi. Bunday xayrli holatning vujudga kelishida asosiy omillar O'zbekistonning o'z hududida huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga jiddiy kirishganligi, bozor iqtisodiga o'tishda sezilarli natijalarni qo'lga kiritganligi, mamlakatda millatlararo totuvlikni va barqarorlikni ta'minlaganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/jahon-iqtisodiyoti-va-xalqaro-munosabatlarda-o-zbekistonning-tutgan-o-rni/viewer>
2. <https://staff.tiame.uz/storage/users/435/presentations/fBobHtDsM7WbHltGpi5727A7DwEctaKVEHBbrqqd.pdf>
3. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/download/1628/2278/1808>.